INNOVATSION TAFAKKURNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Suyarkulova G.Z.
Farg‘ona davlat universiteti
guljaxonzokirovna@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion tafakkurning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Innovatsiyaning bozor munosabatlari, ilmiy-texnik taraqqiyot, bilim va intellektual salohiyat bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, innovatsion tafakkurning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, yangicha fikrlash va jamiyatning dinamik rivojlanishidagi o‘rni ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida ochib berilgan. Innovatsion faoliyatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va ma’naviy sohalardagi ahamiyati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, ilmiy-texnik taraqqiyot, intellektual salohiyat, bozor munosabatlari, ijtimoiy taraqqiyot, yangicha fikrlash.*

Аннотация. *В статье анализируются социально-философская сущность и функциональные особенности инновационного мышления. Раскрывается взаимосвязь инноваций с рыночными отношениями, научно-техническим прогрессом, знаниями и интеллектуальным потенциалом. На основе научно-теоретических подходов рассматривается роль инновационного мышления в социально-экономическом развитии, формировании нового типа мышления и динамичном развитии общества. Обосновывается значение инновационной деятельности не только в экономической, но и в социальной, культурной и духовной сферах.*

Ключевые слова: *инновация, инновационное мышление, инновационная деятельность, научно-технический прогресс, интеллектуальный потенциал, рыночные отношения, социальное развитие, новое мышление.*

Abstract. *The article analyzes the socio-philosophical essence and functional features of innovative thinking. It examines the relationship between innovation, market relations, scientific and technological progress, knowledge, and intellectual potential. Based on scientific and theoretical approaches, the role of innovative thinking in socio-economic progress, the formation of new ways of thinking, and the dynamic development of society is revealed. The significance of innovative activity*

not only in the economic sphere but also in the social, cultural, and spiritual spheres is substantiated.

Keywords: *innovation, innovative thinking, innovative activity, scientific and technological progress, intellectual potential, market relations, social development, new thinking.*

Innovatsion tafakkurning funksional xususiyatlari bevosita bozor iqtisodiyoti va ilmiy texnik izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularni bilmay, o‘rganmay, mavzuning, ya’ni innovatsion tafakkurning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini anglash qiyin. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlardagi rang-barang fikrlar, yondashuvlar ma’lum bir e’tirozlar, ilmiy bahslar uyg‘otishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion faoliyat negizida Gegelning hamma narsalar bir-birini rad etadigan va bir-biri bilan aloqada bo‘ladigan ichki qarama-qarshiliklardan iborat, degan fikriga tayanish ko‘zga tashlanadi. “Barcha narsalar o‘z xususiyatga ko‘ra ziddiyatlidir,- deb yozadi Gegel, - mazkur fikrning asl mohiyati shundaki, aynan u narsalarning asl mohiyati va haqiqatni ifoda etadi.Maboda narsa o‘zida qarama-qarshilik manbai ekan, uning mavjudligi, harakatlanishi, faoliyatga chorlashi ham shundandir” [1, 42]. To‘g‘ri, Gegelning bu fikri tanqid ham qilinadi, chunki XX asr ijtimoiy taraqqiyot faqat ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklar birligiga qurilmasligini ko‘rsatdi, jamiyatda ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish, ularni murosaga keltirish prinsipi ham amal qiladi [2,33]. Shunday bo‘lsa-da, nemis faylasufining ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar haqidagi qarashlari ta’siri innovatsion faoliyat va innovatsion izlanishlarning negizidagi fundamental mohiyatni ochib berishda hamon saqlanib qolmokda.

Yu.V.Yakoves va Ya.van Veyn fikrlariga ko‘ra, “innovatsiya asosida 1) texnologik rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoj; 2)bozor talablari yotadi” [3, 33]. N.D.Kondratev, A.I.Anchishkin, G.Mensh va D.Saxal o‘tkazgan maxsus izlanishlar natijalaridan ma’lumki, aynan ilmiy-texnik izlanishlar kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli bosqichlar xususiyatlarini belgilab bergan. Masalan, D.Saxalning yozishiga ko‘ra, “1)innovatsiya ko‘p hollarda tasodifiy narsalar ifodasi sifatida kelishi; 2) hal etiladigan muammolarga zarur imkoniyatlarning mavjudligi; 3) yig‘ilgan tajribalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq omillar kiradi” [4, 6668].

Taniqli iqtisodchi va bozor munosabatlarining targ‘ibotchisi Y.Shumpeter esa innovatsiyani asosiy va ikkinchi darajali yangiliklarga, uning mazkur klassifikatsiyasiga tayangan G.Mensh esa sohani takomillashtiruvchi va soxta innovatsiyalarga ajratadi. Asosiy innovatsiya yangi bozor munosabatlari va yangi sohalarni shakllantiradi. Ikkinchi darajali yoki soxta innovatsiyalar esa texnologik

jarayonlarni takomillashtirmaydi, sohadagi ish usullariga ma’lum bir yangiliklar olib kirishi mumkin xolos. Mavjud yondashishlarni tahlil qilgan D.I.Kokurin innovatsiyani quyidagi tiplarga ajratadi: “mutlaq yangi, prinsipida radikal (asosiy) bo‘lgan texnologiyalar, mahsulot turlari, boshqarish usullari; ishlab chiqarishning turli omillari qorishmasidan foydalanishni nazarda tutadigan, kombinatsiyalashtirilgan tipi; xo‘jalik yuritish usullari prinsiplarini, mahsulot asosiy tuzilishini qo‘shimcha yangiliklar bilan boyituvchi, modifikatsiyalashtirilgan tipi” [5, 17]. Shu bilan birga, u innovatsion faoliyat, innovatsion izlanishlar bozor munosabatlarining mahsuli, ularni har doim ushbu uyg‘unlikda qarash zarur, deb biladi. Mazkur fundamental fikrni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham uqtirib o‘tadi.U deydi: “Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o‘tishi ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo‘lgan yangicha yondashuvlarga yo‘l ochib berdi” [6, 169].

Ijtimoiy-falsafiy, ekzistensial ma’noda innovatsiya taraqqiyotga intiluvchi sub’ektlarga xos voqelik, u yangilik izlashni bozor munosabatlarining atributi hisoblaydi.Akademik S.S.G‘ulomov va uning hamkasblari innovatsiyani ijtimoiy hayotning turli yo‘nalishlari, turli modellar orqali asoslashga intiladilar. Ular quyidagilardan iborat: 1) o‘zbek iqtisod modeli (kichik biznes va xususiy, oilaviy tadbirkorlik, odamlarni ijodiy va intellektual qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, bilimga tayangan innovatsion jamiyat); 2) o‘zbek ilm fan va ta’lim modeli (yangi bilimlar yaratish, ularni innovatsiyalarga aylantirib obod turmush qurishga o‘rgatish); 3) o‘zbek sog‘liqni saqlash modeli (ona va bola salomatligini muhofaza qilish, intellektual salohiyatni rivojlantirishga va ovqatlanish masalalariga katta e’tibor qaratilgan); 4) o‘zbek oila modeli (sog‘lom va intellektual salohiyatli bolalarni yaratadi va tarbiyalaydi); 5) o‘zbek mahalla modeli (obod turmush qurishda, intellektual salohiyatli, tadbirkor oila va bolalarni kam ta’minlangan oilalarga namuna qilish)... Bu modellar uzoq (har biri 30, 50 yil) industrial, post industrial, innovatsion iqtisodiy davrlarni bosib o‘tmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilim ishlab chiqarib, bilim eksport qiladigan, ya’ni bilimga tayangan iqtisodiy jamiyat shakllangan davlatga aylanishga o‘z samarasini o‘tkazadi” [7, 55-56]. Mualliflar innovatsiyani bilim, intellektual salohiyat, ilm-fan, ilmiy tafakkur bilan bog‘layotganlarini sezish qiyin emas, aynan ushbu sohalardagi yutuqlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yangi bosqichga ko‘taradi, bozor munosabatlariga mos bo‘lgan tuzilmalarni, xizmat turlarini shakllantiradi. Ilmiy tafakkur ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, innovatsionrivojlanishning asosidir.

Iqtisod fanlari doktori, professor Z.A.Muqumov innovatsiyani mahsulli innovatsiyalar va texnologik innovatsiyalarga ajratadi. Uning fikricha, mahsulli

innovatsiyalar korxonada birlik yangi mahsulotni sotish narxini tannarxga nisbatan oshirish, shuningdek, avvalgi mahsulotni modifikatsiyalash va modernizatsiyalash orqali foydani maksimallashtirish imkonini beruvchi innovatsiyalar; texnologik innovatsiyalar esa korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini kamaytirish orqali foydani maksimallashtirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Shu bilan birga tadqiqotchi texnologik innovatsiyaning mohiyatini ham ko‘rsatib o‘tadi. “Texnologik innovatsiyalar odatda yangi yoki mukammallashtirilgan xususiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi; mahsulot tayyorlashning ancha yaxshilangan, mukammal usullarini qo‘llash jarayonida yuzaga chiqaradi; tashkiliy – boshqaruv innovatsiyalar -avvalo ishlab chiqarish, transport, savdo ta’minotni optimal tashkil etish jarayonlari bilan bog‘liq; ma’lumot beruvchi innovatsiyalar – ilmiy-texnik va innnovatsiya faoliyati sohasida axborot oqimlarini ratsionallashtirish, axborotlarni qabul qilish operativligi va qulayligini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal qiladi; ijtimoiy innovatsiyalar mehnat sharoitlarini yaxshilash, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat sohalari muammolarini hal etishga qaratiladi. Innovatsiya - bu ilmiy bilimning innovatsiyaga aylanishi jarayonidir. Uni innovatsiyaning g‘oya ko‘rinishidan aniq mahsulot, texnologiya yoki xizmat ko‘rinishiga o‘tishi va amaliyotga tadbiq etish bilan bog‘liq ketma-ket hodisalar zanjiri sifatida tasavvur etish mumkin” [8, 10].

Tadqiqotchining fikrlari oldingi mualliflarnikiga yaqin, ammo u texnologik innovatsiyalarning xususiyatlarini to‘laroq ochib berishga intiladi. “Innovatsiyaga berilgan ta’riflar va uning funksional xususiyatlari borasidagi fikrlarni yana keltirish mumkin. Ular iqtisodchi olima Sh.D.Ergashxodjaevaning asarida to‘laroq keltirilgan va tahlil qilingan” [9, 9-10].

Sh.D.Ergashxodjaevaning o‘zi innovatsiyani ilmiy texnologik kashfiyotlarni, yangicha iqtisodiy tafakkur mahsulotlarini iqtisodiyotga joriy etish usuli sifatida qarab, uning funksiyalariga quyidagilarni kiritadi: 1) innovatsiyalar mehnat faoliyatining intellektuallashuviga xizmat qilib, uning ilmiy sig‘imini oshirgan holda inson salohiyati yutuqlari, ilmiy-texnik natijalarni hayotga joriy etish kanali hisoblanadi; 2) innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar doirasi kengaytiriladi, ularning sifati yaxshilanadi, bu esa jamiyat ehtiyojlari va ularning qoniqish darajasi oshishiga xizmat qiladi; 3) innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish kuchlarini ishlab chiqarishga jalb qilish, mahsulot va xizmatlarni kamroq mehnat, energiya va materiallar sarfi bilan ishlab chiqarish imkonini beradi; 4) biror bir sohada innovatsiyalar raqobati takror ishlab chiqarish tuzilmasini o‘zgargan ehtiyojlar tuzilmasi va tashqi muhit tuzilmasiga muvofiq holga keltirishga yordam beradi. Shunday ekan, innovatsiyalar jamiyat rivojlanishi

asosiy qonunlarini amalga oshirishning zaruriy elementi, uning rivojlanish va dinamiklik sharti hisoblanadi. Jamiyatda tashkilotlarning rivojlanishi ular faoliyatining barcha jabhalariga daxldor bo‘luvchi xilma-xil innovatsiyalarni o‘zlashtirish yo‘li bilan ro‘y beradi” [10, 10-11]. Falsafa fanlari doktori,professor A.Begmatov innovatsion ongning o‘ziga xos funsional xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritib, “uning alohida, ilmiy-texnik va zamonaviy axborotlar, boshqarish usullari, yangicha tafakkur yuritish bilan bog‘liq fenomen ekanini ta’kidlaydi. U innovatsion ong fenomeni o‘zgarishlarga moyil ijtimoiy hayotning, bozor iqtisodiyotining, fikrlash tarzining substansional mohiyatini ifoda etishini, taraqqiyotni belgilab berishini qayd etadi, ochib beradi. Aynan innovatsion faolllik ijtimoiy-madaniy va tafakkuriy rivojlanishni ta’minlovchi fenomendir” [11, 9-11].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirganda shunday xulosaga kelish mumkinki, innovatsiya bozor munosabatlari talab va ehtiyojlarining mahsulidir. Iqtisodiy va innovatsion tafakkurning uyg‘unlashgani, ijtimoiy hayot dinamikligi va yangilanishga moyilligining ifodasi hisoblanadi. Shuning uchun uning ijtimoiy-falsafiy, ekzistensional mohiyati bozor munosabatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni rivojlantirishga qo‘shgan hissasidadir. Shu o‘rinda bir narsani aytib o‘tishimiz lozim. Innovatsion tafakkur va innovatsion izlanishlar, kashfiyotlar faqat bozor munosabatlarining mahsuli va, o‘z navbatida, bozor munosabatlarini rivojlantirishga ta’sir etish bilan chegaralanib qolmaydi. Bugun innovatsiyaning ko‘rinishlarini ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida uchratish mumkin. Masalan, internetning madaniy va ma’naviy sohalarga ta’sirini inkor qilish mumkin emas. Aynan Internet ijtimoiy-madaniy va ma’naviy qarashlarimizni, tasavvurlarimiz va hayot tarzimizni o‘zgartirib yubormoqda. Ammo bizning asosiy diqqatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi innovatsion o‘zgarishlarga qaratilgan, madaniy va ma’naviy sohalardagi innovatsion izlanishlarni esa yo‘l-yo‘lakay tahlil qilamiz. Bizning fikrimizcha, madaniy va ma’naviy sohalardagi innovatsion o‘zgarishlarni maxsus tadqiqot mavzusi sifatida o‘rganish o‘rinlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гегель. Науки логики. Философские произведения. Том 1. Кн. 2. - Москва: Мысль, 1972.
2. Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. - Москва: Экзамен, 2001.
3. Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. - Москва: Экзамен, 2001.

4. Сахал Д. Технический прогресс: концепции, модели, оценки. СПб.: Финансы и стабильность,1998.

5. Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. - Москва: Экзамен, 2001.

6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017.

7. G‘ulomov S.S., Ochilov I.S., Ganixodjaev S.O. O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish va barqaror rivojlanish omillari. Bilimga tayangan innovatsion iqtisodiyot. - Toshkent:» Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2016.

8. Muqumov Z.A. Innovatsion faoliyat xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari (“O‘zneftgazmash” AK korxonalari misolida). Toshkent: TDIU, 2013.

9. Ergashxodjaeva Sh.D. Innovatsion marketing. - Toshkent: IQTISODIYOT, 2013.

10. Ergashxodjaeva Sh.D. Innovatsion marketing. - Toshkent: IQTISODIYOT, 2013.

11. Begmatov A. Innovatsion ong: mohiyati, funksiyalari va shakllanish shartlari. - Toshkent: Fan, 2016.